



Effective methods and modern technologies for teaching foreign languages based on the communicative approach

Makhzuna SOTIBOLDIYEVA¹

Uzbekistan State University of World Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

communicative approach,
foreign language teaching,
modern technologies,
interactive methods,
educational effectiveness.

ABSTRACT

This article explores the advantages of the communicative approach in foreign language teaching, effective methods, and recommendations for utilizing modern technologies. It highlights role-playing, group activities, dialogue-based instruction, and integrating online platforms and gamification elements to enhance students' engagement in language learning. This approach helps prepare learners for real-life communication while increasing overall educational effectiveness.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp337-340>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kommunikativ yondashuv asosida chet tillarni o'qitishning samarali usullar va zamonaviy texnologiyalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kommunikativ yondashuv,
chet tillarni o'qitish,
zamonaviy texnologiyalar,
interaktiv usullar,
ta'lim samaradorligi.

Ushbu maqolada chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuvning afzalliklari, samarali usullari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ko'rib chiqiladi. Rolli o'yinlar, guruhli faoliyat, dialog asosida o'qitish kabi usullar hamda onlayn platformalar va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish orqali talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv talabalarning real hayotiy muloqotga tayyorlanishini ta'minlaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

¹ Uzbekistan State University of World Languages. E-mail: mahzunaxonsotiboldiyeva@gmail.com

Эффективные методы и современные технологии обучения иностранным языкам на основе коммуникативного подхода

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коммуникативный подход,
обучение иностранным
языкам,
современные технологии,
интерактивные методы,
эффективность

В данной статье анализируются преимущества коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам и рассматриваются методы и рекомендации по использованию современных технологий. Особое внимание уделяется таким инструментам, как ролевые игры, групповые задания и обучение через диалог, а также применению геймификации и интеграции в образовательный процесс. Такой подход способствует реальной готовности студентов к общению и значительно повышает эффективность обучения.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarni bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ham zarurdir. Chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Ushbu maqolada kommunikativ yondashuvning afzalliklari, samarali usullari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar muhokama qilinadi. Kommunikativ yondashuv nafaqat grammatikani o'rganishni, balki tilni real hayotda muloqot vositasi sifatida qo'llashni ham ta'minlaydi. Til o'rganuvchilar tilni amaliy qo'llash orqali o'zlashtiradilar, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali ko'nikmalar hosil qiladilar va faol muloqot orqali til kompetentsiyasini rivojlantiradilar.

Rolli o'yinlar esa talabalarni turli vaziyatlarga joylashtirish orqali ularni tilni ishlatishga undaydi va guruhda ishlash esa jamoaviy muloqotga o'rgatadi. Masalan, talabalar birgalikda muammo hal qilish yoki loyiha ustida ishlashadi, masalan, real hayotiy muammo taqdim etiladi va uni hal qilish jarayonida tilni qo'llash talab qilinadi. Bu ularda mantiqiy fikrlash va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi. Ikki yoki undan ortiq talaba o'rtasida erkin muloqot tashkil etilib, dialog mavzulari talabalarining qiziqishlariga asoslangan holda tanlanadi. Interaktiv taqdimotlar, video darslar va audio resurslar o'quv jarayonini jonli va qiziqarli qiladi. Masalan, talabalar ingliz tilida subtitrli film tomosha qilishi mumkin.

Duolingo, Quizlet kabi mobil ilovalar va Zoom, Google Meet platformalari yordamida masofaviy ta'lim tashkil etilishi esa talabalarni turli interaktiv mashg'ulotlarga jalb qilish imkonini beradi.

VR texnologiyalari orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, chet elda do'konda xarid qilishni o'rganish kabi. Darslarda o'yin elementlarini qo'llash orqali talabalarni rag'batlantirish va mashqlarni raqobat asosida bajarish yoki ballar yig'ish kabi usullar ham samara beradi. Kommunikativ yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirish orqali talabalar chet tillarini muloqotda faol qo'llashni o'rganadilar, natijada ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiya va ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv ta'lim vositalari, masofaviy ta'lim platformalari va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilar bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Zamonaviy adabiyotlarda ta'lim texnologiyalari uch asosiy guruhga bo'linadi:

1. Multimedia vositalari: Prezentatsiyalar, videodarsliklar, animatsiyalar. Masalan, PowerPoint taqdimotlari va YouTube'dagi o'quv videolaridan foydalanish.

2. Interaktiv vositalar: Virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, o'yinlashgan ta'lim dasturlari. Misol uchun, Duolingo va Quizlet kabi platformalar o'zlashtirishni oshiradi.

3. Masofaviy ta'lim platformalari: Moodle, Google Classroom, Zoom kabi tizimlar. Ushbu platformalar masofaviy darslarni tashkil etishda yordam beradi va talabalar o'rtasida muloqotni osonlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu vositalardan samarali foydalanish faqat texnik vositalarni joriy etish bilan emas, balki ularni didaktik jihatdan to'g'ri rejalashtirish bilan ham bog'liqdir. Didaktik rejalashtirishga o'quv dasturlarini moslashtirish, qiziqarli va dinamik kontent yaratish kiradi. Chet tillarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tadqiqotning metodologik asosi quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi. Talabalarining texnologiyalar yordamida o'zlashtirish darajasini o'rganish maqsadida nazorat va eksperimental guruhlar tashkil etiladi. Har ikki guruh uchun bir xil o'quv materiali taqdim etiladi, lekin eksperimental guruhda zamonaviy texnologiyalar qo'llaniladi. Masalan, nazorat guruhi darslikdan foydalanadi, eksperimental guruh esa mobil ilovalar orqali o'rganadi. Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida texnologiyalarni qo'llash tajribasi va samaradorligi haqida ma'lumot yig'iladi va bu ma'lumotlar o'quv jarayonida duch kelinadigan muammolarni aniqlashga yordam beradi. Onlayn so'rovnoma va testlar ham talabalarining bilim darajasini baholash uchun foydalaniladi. Dars davomida o'quvchilarning ishtirok darajasini kuzatish. Interaktiv darslar davomida talabalar ishtiroki qayd etiladi. Platformalarning o'quv jarayoniga ta'sirini tahlil qilish, masalan, Duolingo orqali mashq bajarish va undan olinadigan foyda o'rganiladi. Bu tahlil natijalar texnologiyalarning o'quvchilarning bilim darajasiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniq ko'rsatadi. Shu bilan birga, grafiklar va diagrammalar natijalarni vizual tarzda taqdim qilishda yordam beradi. Eksperiment uchun zarur vositalar va metodikani ishlab chiqish orqali darsliklarni texnologik vositalarga moslashtirish va talabalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida texnologik vositalardan foydalanish o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylantiriladi. Natijalarni yig'ish va ularni solishtirish bosqichda talabalar bilim darajasi o'rtasidagi farq aniq tahlil qilinadi.

Ushbu metodologiya zamonaviy texnologiyalarni chet tillarini o'qitishda samarali qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, o'qitish sifatini oshirish va talabalar uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi.

XULOSA

Kommunikativ yondashuv asosida chet tillarni o'qitish natijadorligini oshirish uchun innovatsion usullar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar talabalarining real hayotda tilni qo'llashga tayyorligini ta'minlaydi va ularni faol muloqotga rag'batlantiradi. O'qituvchilar ushbu yondashuvni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov, E. O'zbek onomastikasi: bibliografik sharh. Toshkent, 2008.
2. Beletskiy, A. A Leksikologiya va nazariya tilshunoslik: onomastika. Kiev, 1989.
3. Reformatorskiy A. A.: Toponimika va transkripsiya. M.: Nauka, 1994
4. Superanskaya, A. V. Ismning umumiy nazariyasi M: Nauka, 1993
5. Superanskaya, A. V. Terminologiya va onomastikai. Riga, 1993.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
7. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press.